

ZULFIYA SHERIYATIDA BADIY OLAM TALQINI

Habibova Go`zalxon Jamshid qizi
Buxoro viloyati G`jduvon tuman
2-sonliy maltabning onatili va adabiyot fani o`qituvchisi
Habibovagozal@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Zulfiya Isroilovanning sheriyatida badiiy olam talqini haqida keng yoritilgan va Shoira Zulfiya she'rlarining mavzu ko'lami, obrazlar olami tahlil qilingan.

Kalit so'z: Zulfiya ijodi, she'riyat, asar, obraz, timsol, tabiat, manzara, kechinma, sevgi, borli asvir

KIRISH

Zulfiya (1915—1996) O'zbek shoirasi. Taniqli o'zbek shoirasi Zulfiya 1915- yilning 1-martida Toshkent shahrida Isroil temirchi oilasida tug'ildi. 1922-yildan 1931-yilgacha maktabda, so'ng 1931 - 1934-yillar orasida qizlar bilim yurtida tahsil oldi. Mehnat faoliyatini juda erta boshlagan shoira deyarli bir umr jurnalistika va nashriyot sohasida ishladi. U 1935 - 1938- yillarda Til va adabiyot instituti aspiranti, 1938 - 1948-yillar mobaynida Bolalar nashriyoti muharriri, O'zbekiston davlat nashriyoti bo'lim mudiri, 1953- yilgacha «Saodat» jurnalida bo'lim mudiri, 1953- yildan to 1980-yilga qadar, salkam o'ttiz yil davomida, shu jurnalning Bosh muharriri lavozimida ishlab keldi.

Mashhur o'zbek shoiri Hamid Olimjonning turmush o'rtog'i, o'ziga xos she'riyati bilan minglab kitobxonlar qalbini rom etgan iste'dodli shoira Zulfiya 1996-yilning 1-avgustida vafot etdi. Zulfiya (taxallusi; to'liq ism sharifi Zulfiya Isroilova) (1915.1.3— Toshkent — 1996.1.8) — shoira, jurnalist, tarjimon, jamoat arbobi. O'zbekiston xalq shoirasi (1965). Mehnat Qahramoni (1984). Shoir Hamid Olimjonning rafiqasi. Xotin-qizlar ped. bilim yurtini tugatgach (1931—34), O'zbekiston Fanlar qo'mitasi qoshidagi Til va adabiyot in-ti aspiranturasiga o'qishga kirgan (1935). So'ng Yoshlar va o'smirlar adabiyoti nashriyotida muharrir (1938—40), O'zbekiston davlat nashriyotida bo'lim mudiri (1941— 50), "O'zbekiston xotin-qizlari" (q. "Saodat") jurn. da bo'lim mudiri (1950—53), bosh muharrir (1954—85) bo'lib ishlagan. Uning ilk she'ri 1931 y. da "Ishchi" gaz. da bosilgan. Dastlab 1932 y. "Hayot varaqalari" she'rlar to'plami nashr etilgan. Shundan keyin uning "Temiroy" (1934), "She'rlar", "Qizlar qo'shig'i" (1939) she'riy kitoblari e'lon qilingan. Zulfiy she'riy ijodining porlashi "Uni Farhod der

edilar" (1943), "Hijron kunlarida" (1944) va "Hulkar" (1947) to'plamlari bilan bog'liq.

Ayniqsa, H. Olimjonning bevaqt vafotidan keyin (1944) yozilgan, ruhiy silsilalar va qalb iztiroblari bilan to'la she'rlar Zulfiya ijodida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lganidan darak beradi. U shaxsiy fojiasi tasviri orqali 2-jahon urushidan katta talafot va yo'qotishlar bilan chiqqan xalqning dard va alamlarini ifodaladi. 40-y. lar oxirida e'lon qilingan Sovet davlatining san'at va adabiyot to'g'risidagi qarorlari o'zbek adabiyotiga ham katta zarar keltirdi.

Zulfiya bad-bin kayfiyatlar — pessimistik kechinmalar kuychisi sifatida ta'na toshlari ostida qoldi. Shundan keyin u, boshqa qalamkash birodarlari singari, "davr g'oyalari" ni ifodalovchi she'rlar yozishga o'tdi. Lekin ko'p o'tmay, o'zbek ayollari hayotini yaxshi biluvchi shoira va jurnalist sifatida dugonalari haqida she'r va publitsistik maqolalar yozdi, ularni ijtimoiy faollikka chaqirdi, insoniy haquqlarining poymol bo'lmasligi uchun kurashdi. 50-y.larning 2-yarmida u Osiyo va Afrika yozuvchilarining tinchlik va xalqaro birdamlik shiori ostida o'tgan harakatida faol qatnashib, jahonning ko'pgina mamlakatlarida bo'ldi. Hindiston, Misr, Yaponiya va qo'shni respublikalarga qilgan safari shoira ijodida chuqur iz qoldirdi. "Mushoira", "O'g'lim, sira bo'lmaydi urush", "Qozog'iston o'lanlari", "Men chizolmagan surat" singari she'rlari Zulfiyaga shuhrat keltirdi.

Zulfiya she'rlarida tasvir etilayotgan hayot ko'lami kengayib, ijodiga xorijiy xalqlar hayoti manzaralari ham kirib keldi. 70-y. lardan boshlab uning ijodidagi milliy hayot tasvirida yangi ranglar kamalagi paydo bo'ldi, haqqoniylik va hishayajon kuchaydi. "O'ylar" (1965) she'riy guldastasi b-n boshlangan voqelikni falsafiy idrok etish tamoyili "Visol" (1972), "Yillar, yillar..." (1975) she'riy kitoblarida davom etib, shoira ijodida chinakam badiiy yuksalish davri boshlanganini namoyish etdi. U yana doston janriga qaytib, ustoz Oybekning so'nggi safariga bag'ishlangan "Quyoshli qalam" (1970) dostonini yaratdi. Ayni paytda shoira bolalarga bag'ishlangan turkum she'rlar ham yozdi ("Lolaqizg'aldoq", 1975). Zulfiya hayotining muhim bir qismini Hamid Olimjonning adabiy merosini o'rganish va nashr etish ishiga bag'ishladi. Ana shu jarayonning uzviy qismi sifatida u shoirning "Semurg' yoki Parizod va Bunyod" dostoni asosida qo'g'irchoq teatri uchun "Semurg'" pyesasi (S. Somova b-n hamkorlikda) hamda "Zaynab va Omon" operasi librettosini yozdi.

A. S. Pushkin, M. Yu. Lermontov. N. A. Nekrasov, M. Voqif, L. Ukrainka, M. Dilboziy, S. Kaputikyan, E. Ognetsvet, Mustay Karim, Amrita Pritam, Ye. Bagryana va b. ning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Uning asarlari ko'plab chet tillarda, shuningdek, qardosh turkiy xalqlar tillarida nashr etilgan. Zulfiya

xalqaro Javaharlal Neru (1968), "Nilufar" (1971) mukofotlari hamda Hamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti (1970) laureati. Shuningdek, u Bolgariyaning "Kirill va Mefodiy" (1972) ordeniga sazovor bo'lgan. O'zbekiston hukumati atoqli shoira Zulfriya nomidagi Davlat mukofotini ta'asis etdi. Toshkentdagi ko'chalardan biriga uning nomi berilgan.

Zulfriya ijodi, u yaratgan poetik asarlar hozirgi o'zbek she'riyatida muayyan ahamiyatga molikdir. Shoira Zulfriya ijodida xotin-qizlar mavzusining ko'p jihatlari teran yoritilishi, sevgi va hijron motivlarining haqqoniy badiiy tadqiq etilishi, tinchlik, xalqlar do'stligi g'oyalarining ancha ta'sirchan tarannum etilishi tahsinga sazovor.

Ma'lumki, Zulfriya tomonidan yaratilgan asarlarda realistik tasvir tamoyillari kuchayganligi hamda poetik obrazlar olami kengayganligini ko'rsatadi. O'zbek adabiyots hunosligining dolzarb muammolaridan biri san'atkorning o'ziga xos, betakror badiiy olamini o'rganish bo'lib, bu masalaning teran atroflicha tadqiq qilinishi yozuvchining individual mahoratini ko'rsatishga, uning adabiyotimiz taraqqiyotidagi o'rnini belgilashga xizmat qiladi. Zulfriyaning poetik fikrlash tarzini jiddiy o'rganish, uning asarlaridagi obraz va obrazlilikning tabiati, xarakterini yana ham to'laroq ochish o'zbek she'riyatidagi katta bir turkum asarlar mohiyatini tushunishga imkon beradi. Zulfriya ijodida o'zbek ayolining taqdiri muhim o'rin egallaydi, uning mamlakat hayotidagi faol o'rnini muhim ahamiyat kasb etadi.

Zulfriya she'riyati tabiatga hamda uning ajralmas qismi va yuqori cho'qqisi bo'lmish odamzotga nisbatan hayajonli sevgi bilan burkangan. Uning she'rlarida tabiat och ranglarda, yorqin bo'yoq va timsollarda gavdalanadi. Shoira go'zal hayotning muayyan tomonini badiiy tadqiq qilar ekan, u asosiy e'tiborini inson qalbida kechayotgan ziddiyatlar, tuyg'ular tovlanishini ifodalashga qaratadi. U inson ruhiy olamini rang-barang ko'rinish vaziyatlarda badiiy tadqiq etib, shu orqali uning yaratuvchilik, bunyodkorlik hamda borliqdagi barcha sodir bo'lgan, bo'layotgan voqealarga mas'uliyat hissini oshirishga intiladi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Zulfriya lirikasi teran tafakkur va jo'sh qin hissiyot vobastaligidan hosil bo'lgan she'riyatdir. Shoira lirik qahramoni ko'pda yuksak intellekt sohibasi ekanligi sezilib turadi. U biroz o'ychan, ba'zan falsafiy, ba'zida esa jiddiy va ta'sirchan. Shoira ma'naviy-ruhiy izlanishlarida, poetik timsol yaratish jarayonida his-tuyg'ular manzarasi, kechinma tarangligi, o'tkir dramatik va ziyat va kolliziyalar bo'rtib turadi. Unda makon va zamon

chegarasining qamrovlari keng, o‘tmish, bugun va kelajak voqeligi inson taqdiri, ertasi bilan tasvirlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov N.Zulfiya. Ma’rifiy biografik asar. – T., G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.
2. Umurova G. (2014). SHoira Zulfiyaning badiiy olami. Monografiya. “Navro‘z”, 156 b.
3. Umurova G. (2018). Zulfiya lirikasida tuyg‘ular tadriji // Xorijiy filologiya. – Samarqand, 4(4), B.83-88.
4. Umurova G. (2017). Zulfiya badiiy mahoratining ba’zi qirralari //O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 5(5), B.85-90.
5. Zulfiya. Adabiy o'ylar. – Toshkent: "Fan", 1985
6. <https://tafakkur.net/zulfiya.haqida>

**"Innovations in Science and
Technologies"**